

Ichan qal'adan so'nggi xonlik davriga oid oqova suv qudug'i aniqlandi

Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi hududidagi yer ostidan o'tgan oqova suv tarmog'i (kanalizatsiya) quvurlarini ta'mirlash bilan bog'liq qurulish va qazish ishlari vaqtida so'nggi xonlik davriga oid (XIX asr) bo'lgan oqova suv qudug'i aniqlandi. Quduq muzey qo'riqxonasi hududining markazida, Matpanoboy madrasasining shimoliy-sharqiy burchagida joylashgan.





Quduqning diametri 190 sm bo'lib, chuqurligi saqlanib qolgan joyigacha 195 smni tashkil qiladi. Quduq pastdan yuqoriga tomon torayib yuqori qismi gumbazsimon ko'rinishda yopib qo'yilgan. Quduqning eng yuqori qismida g'arb tomondan ichi yashil tUSDagi bo'yoq bilan sirlangan sopol quvurlar tarmog'i kelib ulangan. Quduq devorlari ancha yaxshi saqlangan. Quduq uchun ishlatilgan g'ishtlar 30x30x5 sm hajmga ega.